e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


# IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

*Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*
*Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies*
ISSN 3060-5059 (Online)
*Article / Original paper* https://doi.org/10.67227/c5t3b233

# NEMIS VA O‘ZBEK TILLARINING FONETIKASIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

**Boymatov Abdujabbor Eshqobilovich**
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent.
**e-mail:** boymatovabdujabborov@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0001-9623-3068

**Annotatsiya.**
Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillarining fonetik tizimiga doir ayrim xususiyatlar qiyosiy jihatdan yoritiladi. Unli va undosh tovushlarning artikulyatsion belgilari, unlilarning cho‘ziqligi, so‘z urg‘usi hamda intonatsiyadagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rib chiqiladi. Nemis tilidagi ayrim tovushlarning o‘zbek tilida bevosita muqobili mavjud emasligi bilan bog‘liq talaffuz qiyinchiliklariga e’tibor qaratiladi. Fonetik tafovutlarni hisobga olishning nemis tilini o‘rganuvchi o‘zbekzabonlarda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** tizim, unli tovush, orfografiya, lotin yozuvi, fonetika, fonema, lingvistika, tembr, reduksiya.

# НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ФОНЕТИКЕ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

**Бойматов Абдужаббор Эшкобилович**
Джизакский государственный педагогический университет, доцент.

**Аннотация.**
В статье в сопоставительном аспекте рассматриваются отдельные особенности фонетических систем немецкого и узбекского языков. Анализируются сходства и различия в артикуляционных характеристиках гласных и согласных звуков, долготе гласных, словесном ударении и интонации. Особое внимание уделяется произносительным трудностям, связанным с отсутствием в узбекском языке прямых соответствий некоторым звукам немецкого языка. Обсуждается значение учёта фонетических различий при формировании произносительных навыков у узбекоязычных учащихся, изучающих немецкий язык.

**Ключевые слова:** система, гласный звук, орфография, латиница, фонетика, фонема, лингвистика, тембр, редукция.

# SOME CONSIDERATIONS ON THE PHONETICS OF THE GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

**Boymatov Abdujabbor Eshqobilovich**
Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor.

**Abstract.**
This paper offers a comparative overview of selected features of the German and Uzbek phonetic systems. It examines similarities and differences in the articulatory characteristics of vowels and consonants, vowel length, word stress, and intonation. Particular attention is paid to pronunciation difficulties arising from the absence of direct equivalents for certain German sounds in Uzbek. The paper discusses the importance of considering these phonetic differences when developing the pronunciation skills of Uzbek-speaking learners of German.

**Keywords:** system, vowel sound, orthography, Latin script, phonetics, phoneme, linguistics, timbre, reduction.

**Kirish**. Fonetika — aslida yunoncha so‘z bo‘lib, ma’lum bir tilga oid tovushlarning akustik va artikulyatsion tomonlari hamda nutq tovushlarining paydo bo‘lishini o‘rganadigan tilshunoslikning bir bo‘limi hisoblanadi. Har bir kishi o‘zining ona tilidan tashqari biror chet tilini o‘rganar ekan, u, albatta, o‘z ona tilini mukammal bilmog‘i lozim. Shuningdek, ona tilidagi tovushlar tizimini o‘rganish bilan birga, o‘rganilayotgan chet tilidagi (nemis, ingliz, fransuz yoki boshqa tillar) tovushlar tizimining farqlarini, ularning bir-biriga mos kelishi yoki kelmasligini bilib olishi kerak bo‘ladi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, boshqa xalqlar o‘rtasidagi bevosita va bilvosita aloqalarni tasavvur qilish qiyin bo‘lib, rivojlangan davlatlar xalqlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun o‘sha xalqning tilini mukammal bilish davr talabiga aylanib bormoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishda olimlar, til mutaxassislari, til o‘rgatuvchilar va o‘qituvchilar tomonidan til o‘rganish uslublari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, chet tillardan birini o‘rganishda uni o‘z ona tili bilan solishtirmasdan o‘rganish ba’zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. «Chet tili ona tili va vositachi til bilan qiyoslab o‘rganilganda ham, ona tilining ishtirokisiz o‘rganilganda ham, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin» [1; 90–93], degan fikrlar ham bor. Albatta, bunda til muhitining mavjudligi hisobga olinmagan bo‘lsa kerak. Bunday holda ikki tilli lug‘atlarning keragi bo‘lmay qoladi va bu fikrga qo‘shila olmaymiz [B. A.]. Bundan tashqari, har qanday chet tilini o‘rganish til o‘rganuvchidan ko‘p vaqt, sabr, chidam va samarali aqliy mehnatni talab qiladi, shuningdek, o‘qituvchiga yuksak bilim va mahorat kabi mas’uliyat

ISSN 3060-5059 (Online)

yuklaydi.

Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi unli tovushlarning fonetik xususiyatlari haqida fikr yuritmoqchimiz. Ma’lumki, barcha tillarda unli va undosh tovushlar mavjud bo‘lib, bu tovushlar qaysi jihatlari bilan bir-biridan farq qilishini ko‘rib chiqamiz. Ikkala tilda ham unli tovushlar ishtirokisiz so‘zlar yasab bo‘lmasligi ma’lum. Bizning ona tilimiz kirill alifbosidan lotin alifbosiga o‘tganiga ancha vaqt bo‘ldi. Ayni kunlarda barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida lotin grafikasi asosida ta’lim olib borilmoqda. Qaysi shahar ko‘chasiga qaramang, do‘konlar, shiorlar va ma’muriy binolar peshtoqidagi turli lotin yozuvlariga ko‘zingiz tushadi. Albatta, ayrim orfografik xatolar ko‘p uchrashiga e’tibor bermagan holda.

Agar oldingi kirill yozuvidagi o‘zbek alifbosida 35 ta harf bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi lotin yozuviga asoslangan alifbomiz 26 ta harf, 3 ta harf birikmasi va bitta [‘] tutuq belgisidan iborat. Xuddi shunday, nemis alifbosida ham 26 ta asosiy harf mavjud bo‘lib, bundan tashqari, bir nechta harf birikmalari mavjud. Ikkala tilda ham unli harflar soni oltitadan iborat ekanligini ko‘ramiz:

| **Nemis tilida** | **O‘zbek tilida** |
|---|---|
| a, o, u, e, i, y | a, o, u, o‘, i, e |

Ko‘rinishidan, ikkala tildagi unli harflar soni bir xil bo‘lib, ular fonetik qoidalar asosida talaffuz qilinganda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. O‘zbek tilida unli tovushlar old va orqa qatorlarga bo‘linib o‘rganiladi: [i], [e], [a], [ʊ], [u], [o‘], [o]. Unlilar urg‘uli bo‘g‘inda kuchli va cho‘ziq talaffuz qilinadi. Urg‘usiz bo‘g‘inda esa qisqa talaffuz qilinib, so‘zlarning mazmuniga deyarli ta’sir etmaydi. Masalan: karam, astar, bilan va h. [2; 90–93].

Nemis tilidagi mavjud [a], [o], [u], [e], [i], [y] unli tovushlari 6 tani tashkil etishiga qaramasdan, shu tovushlar ishtirokida 16 ta tovush hosil bo‘ladi: [ä], [a], [e:], [ə], [ɛ], [o‘:], [o], [i:], [ɪ], [o], [æ], [ö], [ø], [ü], [ʊ], [y:], [y].

Shundan ko‘rinib turibdiki, unli fonemalar (fonema — so‘z va morfemalar ma’nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tilning eng kichik tovush birligi) ikkala tilda son va sifat jihatidan sezilarli darajada farq qiladi.

Nemis tilida unlilarning fonologik jihatdan farqlanishida davomiylik muhim o‘rin tutadi. Ularning belgilaridan biri ochiq va yopiq bo‘g‘inlarda ifodalanishidir. O‘zbek tilida bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Bu holat tilda nisbiy turdosh nomdir. Shunday qilib, nemis va o‘zbek tillaridagi unli tovushlar og‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘ladi. Lekin nemis tilida burun bo‘shlig‘ida tugamaydi. Bunday tembr fonologik jihatdan olib qaraganda nisbiy emas. Ikkala tilning unli tovushlari og‘iz bo‘shlig‘idagi tilning holatiga ko‘ra farq qiladi. Bundan tashqari, ular o‘zlarining fonologik xususiyatlari orqali ifodalanadi.

Nemis tilining old qator unli tovushlariga [a], [e:], [o‘:], [y:], [y], [oe], [i:], [ɪ] lar kiradi. O‘zbek tilida old qator unlilar [e] va [i] hisoblanadi. Bular haqiqiy old qator unli tovushlardir. Nemis tilida old qator unli tovushlar soni o‘zbek tilidagiga nisbatan ko‘pligi ko‘rinib turibdi. Bu holat nemis tilining fonetik va fonologik bazasi bilan izohlanib, ushbu unlilarni talaffuz qilishdagi til holati bilan xarakterlanadi.

O‘zbek tilida orqa qator unlilarga [o], [o‘], [u] kabilar kirib, ularni talaffuz qilishda til bir oz orqaga tortiladi. Shuning uchun ham bu unlilar orqa qator unlilari hisoblanadi. Nemis tilida [a] unli tovushi talaffuziga ko‘ra o‘rta keng qatorga kiradi. O‘zbekcha [a] unli tovushi ham o‘ta keng qatorga kirib, til bir oz orqaga tortiladi. Nemis tilida tilning talaffuz jarayonidagi holati turli vazifalarni bajaradi. Fonologik nuqtayi nazardan, o‘zbek tili unlilarining belgilari va qatorlari nisbiy ravishda qaralmaydi.

Tilning talaffuz jarayonida ko‘tarilishiga ko‘ra ikkala til unlilari yuqori, o‘rta va quyi ko‘tarilish unlilariga ajratiladi. Nemis tilida quyi ko‘tarilish unlilariga [a:], [a], o‘zbek tilida [a], [o] lar kiradi. Tilning o‘rta ko‘tarilishiga ko‘ra nemis tilida [e:], [ɛ:], [ɛ], [o:], [ɔ], [oe] kabilar, o‘zbek tilida esa [e], [o‘] lar hisoblanadi. Nemis tilida yuqori ko‘tarilish unlilariga [i:], [i], [y:], [y], [u:], [ʊ], o‘zbek tilida esa [i], [u] unlilari kiradi.

Tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra unli tovushlarning belgilari farqlanadi: winden – wenden, leben – lieben, Ohr – Uhr, viele – fühle, Biene – Bühne, Tier – Tür, vier – für; o‘zbek tilida: kir – qor, qol – ko‘l.

Nemis tilida urg‘usiz [ə] unlisi mustaqil qo‘llaniladi. Barcha o‘zbek fonemalarini urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarda uchratish mumkin. Nemischa [ə] unlisi son va sifat jihatidan reduksiyaga uchrashi mumkin. O‘zbek adabiy talaffuz me’yorlari uchun bunday holat xos emas, ba’zi tor unlilar [i], [u] ma’lum holatlarda sifat reduksiyasiga uchraydi. Masalan: bilan, bir, quloq, tish, tugun.

Nemis tili unlilarining lablanish darajasi o‘zbek tilining lablangan unlilariga nisbatan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlanadi. Qiyoslang: [u:], [y], [y:] va [o‘], [o:], [o]. Nemis tilida lablanmagan unli tovushlarga [a:], [a], [e], [ɛ], [ɛ:], [ə], [i:], [i], o‘zbek tilida esa [i], [e], [a] kabilar kiradi. Ikkala tilda ham lablangan va lablanmagan unli tovushlar fonologik jihatdan farqlanadi. Misollar: kir – ko‘r, kir – qor, qora – qara; o‘ – i (ko‘r – kir), o – e (ol – el), a – o (qora – qara); Tier – Tür, lesen – lösen [3; 61–63] va boshqalar. O‘zbek tilida til holatiga ko‘ra ko‘p qo‘llaniladigan belgilar hisobga olinadi, nemis tili esa bundan mustasno. Nemis va o‘zbek tillaridagi unlilar ayrim jihatlari bilan bir-biriga yaqin bo‘lishiga qaramasdan, ularning talaffuzi va fonologik xususiyatlari farqlanadi. Nemis tilini o‘rganishda ona tilidan olingan nazariy bilimlarga tayanish samarali natija beradi.

Nemis tilida o‘zbek tilida uchramaydigan ba’zi fonetik va lingvistik hodisalar mavjud. Masalan, “Knacklaut”, “Umlaut”, “Diftong” atamalari bunga misol bo‘la oladi. Nemis tilida uchta asosiy diftong mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida bunday tovush birikmalari deyarli uchramaydi va ular o‘zbek tilining fonetik tizimiga xos emas. Bu masala yuzasidan ko‘plab munozaralar bo‘lib, tilshunos olimlarimizning turlicha fikr va qarashlari mavjud. Diftong odatda ikki unli tovushning bir bo‘g‘indagi fonetik kombinatsiyasidir [4].

Diftong tushunchasi fonologiyaning paydo bo‘lishidan oldin vujudga kelgan. XIX asrda [5] yonma-yon turgan ikki unli tovushning ikki bo‘g‘inga bo‘linishi (The-ater, be-achten) yoki bir bo‘g‘inga tegishli bo‘lishi (Auge, Eis) o‘rtasidagi farqlar aniqlangan.

**ISSN 3060-5059 (Online)**

Bu borada akademik L. V. Shcherba o‘z fikrini quyidagicha bayon qiladi, ya’ni diftonglarni fonetik (akustik-fiziologik) nuqtayi nazardan to‘g‘ri va noto‘g‘ri turlarga ajratadi [6; 60]. Haqiqiy (to‘g‘ri) diftongning tarkibiy qismlari bir xil jaranglaydi. Noto‘g‘ri diftonglarning tarkibiy qismlari esa bir xil jaranglamaydi, ulardan biri boshqasiga nisbatan jarangliroq talaffuz qilinadi. Nemischa diftonglar pasayuvchi diftonglar hisoblanadi.

Bu yerda shuni eslatib o‘tish joizki, hech bir til o‘z qobig‘ida rivojlanmagan, balki boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar muayyan tilda o‘zlashib, o‘sha tilning lug‘at boyligini boyitishga xizmat qilgan. Bir tildan boshqa tilga ayrim so‘zlar kirib kelganda, albatta, fonetik o‘zgarishlarga uchraydi. Bunda o‘sha tilning unli va undosh tovushlariga ta’sir etib, ularning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, biz nemis va o‘zbek tillaridagi unli tovushlar tizimini baholi qudrat qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqdik. Agar biror kishi chet tillardan birini o‘rganishni istasa, u, albatta, dastlab o‘z ona tilidagi fonetik va grammatik qonun-qoidalarni bilishi kerak. Olingan bilimlarga tayanib, tillardagi so‘z va so‘z birikmalarini, grammatik qurilmalarni bir-biri bilan chog‘ishtirib o‘rganish maqsadga erishishning muhim poydevori hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizova Z. R. Ingliz va o‘zbek tillaridagi unli va undosh fonemalarning qiyosiy tahlili // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Toshkent, 2014. – № 3. – B. 90–93.
2. Asqarova M., Qosimova K., Jamolxonov H. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – B. 39.
   URL (ushbu kitobga havola berilgan ilmiy manba):
   https://tsuull.uz/sites/default/files/monografiya_globo_edit_compressed.pdf.
3. Awasbajew N. Phonetik der deutschen Gegenwartssprache. – Taschkent: O‘qituvchi, 1978. – S. 61–63.
   URL (kutubxonaning elektron adabiyotlar ro‘yxati): https://arm.samdchti.uz/library/download/575
4. Kleines Wörterbuch sprachwissenschaftlicher Termini / hrsg. von R. Conrad. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1975.
   URL (muharrirning universitet saytidagi bibliografiyasi): https://research.uni-leipzig.de/agintern/CPL/PDF/Conrad_Rudi.pdf.
5. Sievers E. Grundzüge der Phonetik: zur Einführung in das Studium der Lautlehre der indogermanischen Sprachen. – Leipzig: Breitkopf & Härtel, 1901. – URL: https://archive.org/details/grundzgederphon01sievgoog. Open Library
6. Матусевич М. И. Введение в общую фонетику. – 2-е изд. – Ленинград: Учпедгиз, 1948. – С. 60.
   URL (asar nashrlari haqidagi katalog yozuvi):
   https://rusneb.ru/catalog/010003_000061_23dca0c27c4e55184e97586ccd8bd096/.